

INKLYUZIV TA'LIM-BOLA IMKONIYATLARINING POYDEVORIDIR

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

PhD. Navoiy davlat pedagogika instituti

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Nishonova Munisa Raxmonqulovna

Navoiy. E-mail: munesanushonova@gmail.com.

Annotatsiya: Inklyuziv ta'lim - imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olishlarida yaratilgan imkoniyat ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Konvensiya, inklyuziv ta'lim, diskriminatsiya, metodologiya, konstitutsiyaviy, o'z-o'ziga xizmat, me'yoriy-huquqiy hujjat, imkoniyati cheklangan bola, teng huquqlilik.

Аннотация: Утверждается, что инклюзивное образование – это созданная для детей с ограниченными возможностями возможность получать образование вместе со своими здоровыми сверстниками.

Ключевые слова: Конвенция, инклюзивное образование, дискриминация, методология, конституционность, самообслуживание, нормативно-правовой документ, ребенок с ограниченными возможностями здоровья, равноправие.

Abstract: It is stated that inclusive education is an opportunity created for children with disabilities to receive education together with their healthy peers.

Key words: Convention, inclusive education, discrimination, methodology, constitutional, self-service, regulatory legal document, child with disabilities, equal rights.

Bugungi kunda jamiyatning muhim vazifalaridan biri – imkoniyati cheklangan bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali sifatli ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi sog'lom bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi.



Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos qilib oladi. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"da barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasi ilgari surildi. Chunki har bir bolada u sog'lommi yoki imkoniyati cheklanganmi - ularda takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi.

Inkluziv ta'lim bu, shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablarda o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olish demakdir.

Inkluziv ta'lim bu, nogironligi bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (**diskriminatsiya** (farqlash)) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati cheklangan) bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar, qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv dasturlari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarni ham o'zlari xohlagan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olishlari mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularni o'qish va yozishga o'rgatish, ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berishda pedagog-tarbiyachilar hamda imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tashkilotlariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor: Birinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishadi, bunday bolalar ijtimoiy tomondan himoyalana dilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tiborli bo'lgan holda munosabatda bo'lishni his etadilar.



Ikkinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan yonma-yon o‘qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyat darajasida faoliyat ko‘rsatish, ta‘lim olishi, kasb-hunar o‘rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta‘lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy tomondan himoyalantilar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o‘z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Inklyuziv ta‘lim ta‘lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta‘lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan bolani inklyuziv ta‘limga erta jalb qilinsa qanday natijalarga erishiladi:

- Mahallada bolalikdan qo‘shilsa qo‘shni bolalar bilan o‘ynaydi, ular bilan tanishadi, milliy qadriyatlarni anglay boshlaydi.

- Maktabgacha ta‘limda esa atrofdagi insonlar va tengdoshlari bilan muloqotni o‘rganadi, erta yoshdan o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

- Umumiy o‘rta ta‘lim imkoniyati cheklangan bola uchun muvafaqqiyatlar va kelajakka bo‘lgan ishonchining toblanish davri hisoblanadi. Sog‘lom odamlar bilan muloqoti davom etadi, atrofdagilarning salbiy va ijobiy qarashlariga duch kelayotganini anglaydi va ularga nisbatan o‘zining mustaqil pozitsiyasini topib oladi.

- Mustaqil hayotga qadam qo‘yganda mustaqil fuqaro sifatida o‘qishi, ishlashi, turli munosabatlarda ishtirok etishga tayyor bo‘ladi. Ota-ona va yaqinlari uni tashqariga chiqishidan xavotirga tushmaydi.

- Jamiyatda qo‘shiganda endi uning kimligi, nimalarga qodirligini bilgan-taniganlar unga ishonadi. Natijada u oila qurish, oilasini boqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xullas, bunday bolani inklyuziv ta‘limga erta jalb qilinsa, ular jamiyatga yuk emas, balki mustaqil faol fuqaro sifatida shakllanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar asosida imkoniyati cheklangan bolalarni ta‘lim muassasalarida tenghuquqlilik asosida o‘qitish va tarbiyalash masalasi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ham keltirib o‘tilgan.

1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4860-sonli, 2019 yil 8 maydagi



“O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-4312-sonli, 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda “Har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqliligini ta’minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan inklyuziv ta’lim”, 2023 yil 1-maydan kuchga kirgan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunning 9-bob 50-moddasining bir normasida “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”, 2022 yil 4 fevralda tasdiqlangan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 2-bob 2.4.bo‘limida “Ta’lim olishda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya jarayoni inklyuziv ta’lim ekanligi va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi Qonun va hujjatlarda ham o‘z aksini topgan.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar bilan ommaviy guruhlarda integratsiya qilinish, bolalarni sayr qilishi, ta’lim-tarbiya faoliyatida va turli tadbirlar o‘tkazish jarayonida kuzaganimizda, sog‘lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalarga kiyinishlarida, oyoq kiyimlarini kiyishda, yurishda chin dildan o‘z xohishlari bilan yordam beradilar. Sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalar birgalikda kitobdagi rasmlarni tomosha qiladilar, chizishni, sanashni o‘rganadilar. Bunday jarayonda sog‘lom bolalar ham o‘zgalarga yaxshilik qilish, mehr –muhabbat, o‘zgalarga yordam berish, ma’suliyatli bo‘lish, do‘stlik, odillik kabi xislatlari tarbiyalanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, T- 2022 y.
3. Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
4. Выгоцкий Л.С. Вопросы детской психологии.-М:С.П.Б.1999.
5. Белтоков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норми и паталогии)-М: Педагогика.1997.
6. Богдонова.Т .Г. Сурдопсихология-М. 2002.



7. Хайдарова Шахло Нарзуллаевна. Меҳрибонлик уйи тарбияланувчиларини оилавий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.
8. Haydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
9. Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАННИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)

